



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah\_expertiza@mail.ru [www.ekspertiza.mc.uz](http://www.ekspertiza.mc.uz) [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich

Sana: 01-12-2021 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 26043**

**Obyekt nomi** «Jizzax shahar "Ittifoq" MFY hududida LK-8 qozonxonasi qurilishi»

**Buyurtmachi** - O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish Vazirligi "Ko'p xonardonli uylarni mukammal va joriy ta'mirlash xamda issiqlik ta'minoti ob'ektlarini qurish bo'yicha injiniring kompaniyasi" DUK

**Bosh loyihachi** - "JIZZAX BUNYODKOR LOYIHA" MChJ, AL-000761

**Litsenziya** O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi 2020.05.26

**Moliyalashtirish manbai** - Davlat mablag'lari.

**Bosh pudratchi** - Tender tanlovi asosida.

**Qurilish turi** Yangi qurilish.

**Murojaat raqami:** № 24964

**1. Loyihalash uchun asos**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "2018-2022-yillarda issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish dasturi to'g'risida" gi **PQ-2912** sonli qarori;

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 maydag'i "2021-2022-yillarda jizzax viloyatidagi sharoiti og'ir mahallalarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini va ijtimoiy soha ob'ektlari holatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi **308**-sonli qarori;

3. "Arxitektura - rejalash topshirig'i" - Jizzax viloyati qurilish bosh boshqarmasi boshlig'i Tursunov M.P. tomonidan 2021 yil 20 oktyabrda tasdiqlangan;

4. "Loyixa topshirig'i" - Jizzax viloyat qurilish bosh boshqarmasi boshlig'i M. Tursunov bilan, Jizzax viloyat uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi boshlig' M. Bobobekov bilan, Jizzax viloyat hokimining qurilish bo'yicha movini B. Nazarov bilan kelishilgan, O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish Vaziri movini K. Tursunov tomonidan tasdiqlangan.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

- Ishchi loyixani ishlab chiqish bosqichidagi loyixaviy xujjatlar;
- Arxitektura va qurilish yechimlari;
- Tarmoq muxandisligi;
- Smeta xujjatlari.

### **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

#### **Qurilish maydoning xususiyatlari:**

- Qurilish va iqlim zonasi – II;
- Tashqi xavoning taxminiy qishki xarorati – 19 g S;
- Shamolning standart bosimi – 0,38 kPa;
- Standart qor yuki – 0,50 kPa;

"Jizzax shahar "Ittifoq" MFY hududida LK-8 qozonxonasini qurish" ishchi loyihasida quyidagi asosiy ishlar ko'zda tutilgan:

- Modul qozonxona o'rnatish;
- Isitish kameralarini o'rnatish;
- Metall tayanchlar o'rnatish;
- Kaskad uchun uycha qurish;
- Sig'imi 25m<sup>3</sup> bo'lган suv minorasi o'rnatish.

#### **Modul qozonxona**

Qozonxona asosi tasmali monolit quyma temir-betondan ishlangan poydevor hisoblanadi. Beton sinfi B15. O'qlar bo'yicha o'lchami 11,0x25,0m ni tashkil qiladi. Poydevor chuqurliga er sathidan 600mm ni tashkil qiladi.

#### **Metall tayanchlar**

Metall tayanchlar 5 xil tipda ishlangan:

1-tip. O'lchami 100x100x4mm bo'lган to'g'ri to'rtburchakli metall quvurdan ishlangan. Tayanch balandligi er sathidan H=5,0m ni tashkil qiladi. Tayanchlar soni - 26 ta;

2-tip. O'lchami 100x100x4mm bo'lган to'g'ri to'rtburchakli metall quvurdan ishlangan. Tayanch balandligi er sathidan H=4,5m ni tashkil qiladi. Tayanchlar soni - 10 ta;

3-tip. Diametri 152x4mm bo'lган metall quvurdan ishlangan. Tayanch balandligi er sathidan H=2,5m ni tashkil qiladi. Tayanchlar soni - 8 ta;

4-tip. Diametri 152x4mm bo'lган metall quvurdan ishlangan. Tayanch balandligi er sathidan H=2,2m ni tashkil qiladi. Tayanchlar soni - 146 ta.

5-tip. Diametri 76x4mm bo'lган metall quvurdan ishlangan. Tayanch balandligi er sathidan H=0,6m ni tashkil qiladi. Tayanchlar soni - 50 ta.

#### **Sig'imi 25m<sup>3</sup> bo'lган suv minorasi**

Rojnovskiy tizimining zavodda ishlab chiqarilgan yagona po'latdan yasalgan suv minorasi, sig'imi V=25.0m<sup>3</sup>, balandligi H=12.0m. "Giproniselxoz", TSNIIEP muxandislik jixozlash va "Soyuzgiprovodxoz" loyixalash institutlari tomonidan ishlab chiqilgan №901-5-032s tipik loyixa.

#### **Konstruktiv yechimlar:**

Suv minorasi po'lat listlardan payvandlash yordamida yasalgan. Suv minorasi tepa va pastki qismi konusli silindrslimon qobiqdan, silindrslimon suv bilan to'ldirish tayanchidan iborat. Tayanch monolit temirbeton asosga biriktiruvchi qismlar yordamida o'rnatilgan. Tayanch ning pastki qismi yer satxidan H=2,45m balandlikda maxalliy tuproq bilan to'ldiriladi. Tuproq bilan to'ldirilgan qismga chiqish uchun temirbeton zinapoyalar o'rnatiladi. Suv minorasi yoniga xizmat ko'rsatish qudug'i joylashtiriladi va qo'duqda zadvijkalar o'rnatiladi. Suv minorasi issiq-sovuqdan ximoyalanmagan xolda loyixalangan.

#### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

##### **Loyihaning "Elektr ta'minoti" qismi**

Loyixada quvvati 2x250 kVA bo'lgan transformator podstansiyasi o'rnatish va ushbu transformator podstansiyasini 10 kV li tarmoqqa ulash ko'zda tutilgan. Loyixalashtirilayotgan KTP qozonxona va suv skvajinasini elektr energiya bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

0,4 kV kuchlanishli elektr tarmoqlari uchun yer tagida VBbShv-1 kV markali kabellarni yotqizish ko'zda tutilgan.

##### **Loyihaning "Suv ta'minoti" qismi**

Loyiha "Jizzax suv Tominoti" MChJ Jizzax shahar filiali tomonidan 02.11.2021 da chiqarilgan 573-sonli texnik shart asosida ishlab chiqilgan.

Loyihaning suv ta'minoti qismi Jizzax shahri "Ittifoq" MFYdagi LK-8 qozonxonasi suv bilan ta'minlashni ko'zda tutadi.

Suv ta'minoti manbai bo'lib mavjud D=225mm suv ta'minoti liniyasi, shuningdek, mavjud artezian qudug'i va loyihalashtirilgan suv minorasi hisoblanadi.

Vodoprovod tarmog'ini yotqizish chuqurligi 1,1-1,2m ni tashkil yetadi.

Shahar suv ta'minotiga ulangan liniyaga suv o'lhash moslamasi o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

##### **Loyihaning "Issiqlik ta'minoti" qismi**

QOZONXONA quvvati - 12.000-kvt ga mo'ljallangan.

Ushbu loyiha taxminiy tashqi havo harorati (qish) T-16°C bo'lgan hudud uchun ishlab chiqilgan.

Qozonxona - 31 ko'p qavatli uy, aholi - 4990 kishi, isitish tarmog'i umumiy uzunligi - 2280m ga mo'ljallangan. Quvurlar umumiy uzunligi - 5080m. Qozonxonaning ish rejimi - Yil davomida. Issiqlik Tarmog'i - isitish va issiq suv uchun.

Issiqlik tarmoqlari uchun - oldindan izolyatsiya qilingan quvurlar ishlatiladi. Quvurlar yer osti va yer ustidan loyiha qilingan (topgrafik ishlardan kelib chiqib). Issiqlik ta'minoti tizimi 2 ta quvurdan iborat. T1-115°C va T2-70°C parametrlari bilan.

ITPlarni o'rnatish ko'p qavatli binoning podvallarida va zinaxonalarda o'rnatish ko'zda tutilgan.

ITP - bu sirkulyatsiya nasoslari, plastinka issiqlik almashtirgichlari va harorat va bosim sensorlari, belgilangan xususiyatlarga muvofiq uyning isitish va issiq suv ta'minoti tizimlariga sovutish suvi etkazib berishni tartibga soluvchi nazorat klapanlaridan iborat avtomatik kompleks.

Quvurlar Diametri 57x3,5 dan 325x8 millimetrgacha bo'lgan poliuretan ko'pikli issiqlik izolatsiyasi qo'llanilgan. Isitish tizimining quvurlari kanalsiz turida qabul qilinadi.

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

1. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi va Davlat ekologik ekspertizasining hamda Jizzax viloyat Qurilish bosh boshqarmasi qoshidagi Arxitektura-shaharsozlik Kenashining xulosalarini olishi lozim;

2. "Jizzax Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ tomonidan 2021 yil 29 oktyabrdan berilgan №21/1052-sonli "Texnik shart"ga muvofiq loyiha "Jizzax Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ va "O'zenergoinspeksiya" Jizzax viloyat hududiy bo'limi bilan kelishuvdan o'tkazilsin.

## **6. Ekspertiza natijalari.**

1. Loyihaning "Elektr ta'minoti" qismiga 2021 yil 30 noyabrda berilgan quyidagi e'tirozlar va kamchiliklar bartaraf etilmadi:

- Loyixaning «Tashki elektr tarmoqlari» qismi loyixaning «Bosh reja» qismida ishlab chiqilgan Bosh reja asosida ishlab chiqilmagan va VL-10 kV trassasi toposyomkada ishlanmagan.
- 10 kV li zaxira elektr energiyasi manbasiga ulanish uzunligi 86m bo'lgan kabel liniya orqali amalga oshirilgan bo'lib, kabelning (ko'ndalang kesimi 3x35 mm<sup>2</sup>) qisqa tutashuv tokiga termik chidamliligi tekshirilmagan.
- 2 transformatorli GKTP ga yuqori kuchlanish o'tkazgichlarning kirishlarining texnik yechimi xal qilinmagan. Ikkita kirishdan biri kabelli bo'lsa ikkinchisi xavo orqali qabul qilingan.
- KTP ning yuklamasi asoslanmagan (130+7,5 kVt).
- KTP ning surov varagi loyixaga mos kelmagan.
- KTP ning bir chizikli sxemasiga notugri uzgarishlar kiritilgan.
- 0,4 kV kuchlanishli elektr liniyalari kabellarining kundalang kesimlari notugri qabul qilingan.
- Spesifikatsiya chizmalarga mos ishlanmagan.
- Loyixa Jizzax hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan kelishilmagan.

Yuqorida keltirilgan e'tirozlar va kamchiliklar "JIZZAX BUNYODKOR LOYIHA" MChJning 2021 yil 30 noyabrdagi №180-sonli "Kafolat xati" ga binoan loyiha tashkiloti tomonidan bartaraf etilgandan so'ng, buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda loyiha smeta hujjatlarini tasdiqlash tavsiya etiladi.

2. Ishchi loyiha ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

3. Ob'ekt qiymatining asosini isitish uchun mo'ljallangan maxsus uskuna va materiallar tashkil etgani, ularning esa marka va sifat ko'rsatkichlariga ko'ra import maxsulotligini xisobga olib, ularning qiymati buyurtmachi va pudratchi o'rtaida o'zaro kelishuvga asosan aniqlanishi tavsiya etiladi.

4. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar va amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati QQS bilan birga **17 562 682,848** ming so'm taqdim etilgan. Smeta hujjatlarda ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ya'ni qurilish materiallari, jihoz narxlari va me'yoriy harajatlarni o'zgartirish natijasida joriy ta'mirlash ishlari QQS bilan birga **9 598,288 ming** so'mga kamaytirildi.

## **7. Xulosalar.**

1. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda "**Jizzax shahar "Ittifoq" MFY hududida LK-8 qozonxononasini qurish**" ishchi loyihasi bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun 15 % QQS bilan xisoblaganda umumiy miqdorda **17 553 084,560** ming so'm tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

- qurilish montaj ishlari (QMI) - **15 214 864,226** ming so'mni,
- qurilish vaqtida qurilish obektini sug'ortalashga sarflangan xarajatlar(0,32%) – **48 687,566** ming so'm;
- qo'shimcha qiymat solig'i 15% – **2 289 532,769** ming so'mni tashkil etgan.

Ishchi quruvchilarning o'rtacha bir saatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2021-yil III chorak(kvartal) katalog asosida **11 649,03 x 1,12 = 13 046,9136** so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy

harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

**Ta'kidlash joizki:** a) Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi va asoslovchi xujjatlarga tayanilishi lozim. "Narxlar kelishuvi" to'g'risidagi bayonnomma ko'rsatilgan narxlarning haqqoniyi buyurtmachi va pudratchi tashkilot, hamda o'zaro hisob-kitob qilishda ShNK 4.01.16-09 qoidalariga amal qilgan holda eng maqbul narxlar qabul qilinishi nazorati buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.

b) Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;
- "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxları, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;
- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

2. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi .

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarda aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4-bandı).

4. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba'lар hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlarning boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxları, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqi qo'rsatgichlaridan foydalangan xolda shakllantiriladi" xamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaxarsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyixa yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyixa tashkiloti javobgardir".

**Bosh mutaxassis:** DJURAEV ANVAR LAPASOVICH

**Ishtirokchi ekspertlar:**

Sulaymanov Eshmurot Eshbayevich

TURAEV SHOHRUX ILXOMOVICH

ZINADINOV ILYAS XXX

O'KTAMOV AZIZJON RUSTAM O'G`LI

RUSTAMOV SHERJON UMIL O'G'LI